

Course: History of the Eastern and Western philosophy

**Lecture 3: Naturphilosophical ideas in
Renaissance Philosophy**

Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova

UYG‘ONISH DAVRI FALSAFASIDA NATURFALSAFIY QARASHLAR

Jordano Brunoning naturalistik panteizmi.

Leonardo da Vinchi – ehtimollarga qarshi tajriba.

Nikolay Kopernikning ilmiy metodologiyasi.

Galileo Galileyning tabiatshunoslik nazariyasi.

Yakob Byomening mistik ta’limoti.

Jamiyat falsafasida utopik g‘oyalar rivoji.

Tayanch so‘z va iboralar:

Naturfalsafa, geotsentrizm, geliotsentrizm, mistika, naturalistik panteizm, mistika, utopiya.

Darsning maqsadi: Italiyada tabiat falsafasi bo‘yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo‘lish; tabiat falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; ushbu falsafa bo‘yicha talabalarning bilimini kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Jordano Brunoning (1548-1600 yillar) *panteistik naturfalsafasi* Uyg‘onish davrining eng buyuk va kuchli falsafiy sistemalaridan edi. U o‘zining falsafiy qarashlarida tabiatni ruhlantirdi va uning go‘zalligini madh etdi. Inson va tabiatning mutanosibligi insondagi barcha ezgulik va ruhiy kuch tabiat bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Bruno o‘z davrining eng hurfikr, irodasi bukilmas va qo‘rqmas mutafakkirlaridan biri edi. U nafaqat faylasuf, buyuk shaxs sifatida ham undan keyingi avlodlar e’tiborini o‘ziga tortadi.

U o‘z qarashlarida Ibn Rushd, Ibn Giberol, Piko della Mirandolo, Marsilio Fichino va ko‘pgina boshqa mutafakkirlarning inson va tabiat haqidagi fikrlarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Bruno Nikolay Kopernik ta'limotidagi geliotsentrik nazariyani davom ettirib koinot cheksiz degan xulosaga keldi. Jordano Brunoning ta'limoti undan oldin yashagan buyuk mutafakkir N.Kuzanskiy ta'limotiga ko'p jihatdan o'xshab ketar edi.

Bruno Kuzanskiyda mavjud bo'lgan panteistik va dialektik fikrlarni rivojlantirdi va o'zining panteistik ta'limotini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Bruno materiya va ruhni, tabiat va xudoni birlashtirdi. Butun borliqni, koinotni birlashtiruvchi kuch xudodir. U tabiatda tajalli etadi va xilma-xil qiyofalarda ko'rinadi.

Brunoning bunday izchil qarashlari xristian falsafiy qarashlariga zid edi. Xristian dinida xudo tabiatni yaratgan, uni harakatga keltirgan va undan tashqarida mavjud. Brunoda esa xudo tabiatning ichida mavjud va o'zining yaratuvchilik kuch-qudratini tabiatdagi jarayonlar orqali namoyish etadi. Ruhiiy kuch borliq sari intiladi va uning bu intilishini hech qanday boshqa kuch eng olmaydi. Xudo borliq birla mavjud. Undan tashqarida yaratuvchilik qudratini axtarish Bruno fikricha, behuda urinishdir. Bruno bu fikrlarni ochiq-oydin izhor etdi. U hech qanday ikkilanishga o'rin qoldirmadi. Uning fojiali taqdiri undagi qat'iyat va jasorat bilan bog'liq bo'lgan hurfikrlilikdan kelib chiqdi.

Jordano Bruno 1548 yilning boshlarida Nola shaharchasida dunyoga keldi. Uning otasi Jovanni Bruno kambag'allashib qolgan zodagonlardan bo'lib Neapolning vitse qiroli saroyida xizmat qilar edi. Jordanoning cho'qintirish marosimida unga Filipp nomi berilgan. U bolaligida mahalliy lotin tilidagi maktabda o'qiydi. Keyinchalik esa Neapol universitetiga talaba bo'lib kiradi. Lekin moddiy imkoniyatlari cheklangan bo'lganligi sababli Jordano Bruno dominikan monaxlar ordeniga kiradi va bu yerda bilim olishni davom ettiradi. Yosh ruhoniyning hurfikrligi katolik cherkovining urf-odatlarini tanqid qilishi, xristian dinidagi xudoning "uch qiyofa"da mavjudligi aqidasini tanqid qilishi Brunoni inkvizitsiya tomonidan ta'qib etilishiga olib keldi. Natijada Bruno Rimga qochishga majbur bo'ldi. Lekin u o'zini u yerda oqlay olmadi, natijada Bruno

ikki yil davomida Italiyaning ko'pgina shaharlarida sarson bo'lib yurdi. 1576 yil kalvinistik ruhiyatda yashayotgan Jeneva shahriga qochdi.

Jenevada Bruno kolvinistik jamoaning a'zosi bo'lishi, falsafa professori Delafega qarshi chiqqanligi uchun qisqa muddatga hibsga olinadi va Jenevadan ketishga majbur bo'ladi. Bruno Fransiyaga kelib Tuluza universitetida ma'ruzalar o'qiydi, keyinchalik esa Parijga ko'chib o'tib, Parij universitetida ekstraordinar falsafiy ma'ruzalar o'qiydi. U o'zining "G'oyalarning soyasi", "SHamdon" asarlarini chop etadi.

1583-1585 yilgacha Bruno Londonda yashagan. Uning falsafiy ma'ruzalari va Kopernik nazariyasining, himoyasi katolik cherkovining g'azabini keltirdi. U Londonda 6 ta dialog chop ettirdi. 1586 -yilda Bruno Parijga qaytadi va Kombri kollejida bo'lib o'tgan munozaralarda qatnashadi. U Aristotel fizikasi va falsafasidagi asosiy g'oyalari qarshi 120 ta tezisni asoslab chiqadi. Undagi ilmiy salohiyatning kuchliligi va tafakkurning o'tkirligi shu qadar ediki, unga qarshi chiqqanlarni lol qoldirar va Yangi dushmanlar orttirishiga olib keldi. Natijada Bruno Fransiyadan butunlay ketishga majbur bo'ldi. Bruno Germaniyaning Marburg shahriga kelib, bu yerda professor unvonini oladi. Lekin uni ma'ruzalar o'qishga ruhsat berishmaydi. Bruno Vittenberg universitetiga o'tib shu yerda ish faoliyatini boshlaydi. Kalvinistlar ta'sirining kuchayishi Brunoni Vittenbergni tark etishga majbur qildi.

1588 yil kuzida Bruno Chexiyaning Praga shahrida o'z zamonasining matematiklari va faylasuflariga qarshi 160 ta tezisni asoslab chiqadi. Bruno Gelmshtadt shahriga ko'chib o'tib, u yerdagi universitetda o'z faoliyatini davom ettiradi. Lekin, unga homiylik qilgan Branshveylik YUliyning vafotidan so'ng u bu erni tark etishga majbur bo'ldi.

Bruno Yevropa bo'yicha sayohat qilishni davom ettiradi. Venetsiyalik zadagon Mochenigoning taklifiga binoan Bruno Venetsiya shahriga kelib Mochenigo xonadonida to'xtaydi. Mochenigo Brunodan mahfiy bilimlar sirini ochishni talab etdi. Bruno rozi bo'lmaganidan keyin uni Mochenigo dahriylikda ayblab inkvizitsiyaga topshiradi. 8 yil davomida inkvizitsiya Brunoni o'z

qarashlaridan voz kechishga majbur qilmoqchi bo'ladi. Bruno qat'iyatlik bilan inkvizitsiyaga qarshi chiqadi. Inkvizitsiya sudi uni o'limga mahkum qilganda Bruno quyidagi so'zlarni aytadi. "Bu hukmni chiqarar ekansizlar mendan ko'ra o'zlaringiz kuchli hayajon va qo'rquv og'ushidasiz". 1600 -yilda Bruno Rimning gullar maydonida gulxanda yoqib o'ldirildi. Undan qolgan xotirani esa hech qanday gulhan yoqib yubora olmadi.

Brunoning yagona borliq haqidagi ta'limotida borliqning asosida yotuvchi barcha narsalarni birlashtiruvchi yakkayu-yagona ruhiy kuch haqida gapiriladi. Yagonalik kuchi borliq asosida yotadi va borliqning o'zi ham yagona kuchning borlig'idir. Bruno fikricha, borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan bog'liqdir. Materiya va ruh, tabiat va inson, xudo va tabiat, yagona borliqni tashkil etadi. Bu borliqdan tashqarida hech qanday borliq mavjud emas. Yagonalik prinsipi bu dunyodagi barcha narsalarni bir-biriga bog'lab qo'yadi. Yagonalik prinsipi mutlaq harakatsizdir.

Brunoning yagonalik prinsipi aslida - yagona borliqdir. U moddiy shaklga ega emas, u materiya emas. Chunki uning moddiy shakli yo'q. U aslida butun koinot va borliqdir. Yagona borliq harakatsizdir va barcha moddiy narsalarning harakati zaminida yotadi. Yagona borliq ta'limoti asosida ziddiyatlarning birligi masalan: maksimum va minimumlarning birligi, shakl va materiyaning birligi, xudo va tabiat birligi yotadi. Barcha narsalarning xilma-xilligi asosida ham yagona borliq prinsipi yotadi. Bu g'oyani Bruno o'zining "SHamdon" komediyasida ifoda etgan.

Materiya va shaklni Jordano Bruno yagona borliq prinsipi asosida tushuntiradi va uni sxolastikadagi materiya va shaklni ajratish tamoyiliga qarshi qo'yadi. Materiya va shakl haqidagi ta'limotni Bruno yagona borliq haqidagi ta'limotning bir qismi deb hisoblaydi. Real narsalarni Bruno g'oyalar olamidagi g'oyalarning soyasiga o'xshatadi. Materiyaning Bruno aktiv faol kuch, deb hisoblaydi va uni barcha boshqa kuchlardan ustun qo'yadi. Materialiyada harakatchanlik prinsipi yotadi. U doimiy harakatda va o'zgarishdadir. Materialiyada

imkoniyat va zaruriyat kuchlari yaxlit birlikni tashkil etadi. Yagona borliq prinsipi yaqqol ko‘rinadi.

Brunoning atomistik qarashlari va monadologiyasi. Materiyaning tuzilishi haqidagi qarashlarida Jordano Bruno qadimgi atomist faylasuflarning qarashlariga murojaat qiladi. Bruno o‘zining qarashlarida antik fikrni rivojlantirib materiya va nuqtaning birligi haqidagi fikrni aytib o‘tadi. Shunday qilib, barcha koinot nuqtalarida materiya mavjud deb hisoblaydi.

Panpsixizm va “olamiy jon”. J.Bruno ta’limotida, materiyaning shakllar yaratishga qodirligi “olamiy jon”, deb nom oladi. Bu olamiy jon moddiy borliqda mavjud va undagi barcha narsalardan ustun turadi. Olamiy jon va borliqdagi barcha jonlarni, undagi barcha moddiy narsalarni ham yaratadi. Koinotning ruhlanganligi haqidagi ta’limot, Aristotelning harakatsiz borliq haqidagi ta’limotiga qaratilgan edi. Aristotel ta’limotida barcha narsalarning harakat sabablari tashqi birinchi turtki bilan bog‘langan edi. Bruno ta’limotida esa barcha narsalar ichki harakat manbasiga ega. Bu manba olamiy jonning faoliyatidir.

Bu faoliyat ruhiy kuch va qudrat natijasida paydo bo‘ladi. Bruno fikricha, koinotdagi barcha narsalar o‘zining ruhiy kuchiga egadir. Aynan shu kuch harakatning ichki sababchisidir. Undan tashqari bu ruhiy kuch koinotdagi barcha narsalarni ongligiga sababchidir. Shunday qilib, Bruno o‘zining ta’limotida koinotdagi barcha moddiy narsalarning harakati va ongi ularda yashiringan ichki ruhiy kuch mavjudligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi. Bu ruhiy kuch narsalarni harakatga keltiradi va ularni ongli qiladi.

Bruno ta’limotida makon va zamon. Bruno Aristotel ta’limotidagi bo‘shliqni inkor etuvchi g‘oyani inkor etadi. Bruno o‘zining makon haqidagi ta’limotida bo‘shliq va xaos to‘g‘risidagi fikrlar haqida gapiradi. Bruno fikricha, makon materiya bilan birgalikda bo‘shliq sifatida mavjud bo‘lgan. Materiya joylashgan bo‘shliq Bruno fikricha makondir. Makon materiyaning joylashgan o‘rni bo‘lib, materiyaning harakati ham makonda bo‘shliq mavjud bo‘lganligi uchun mumkin. “Makonning bo‘shlig‘i bu moddiy narsalarning harakatga keladigan joyidir” [3, 46], - deb yozadi Bruno.

Bruno Aristotel tomonidan vaqtni harakatdan, materiyadan va makondan ajratilgan holatda tushinishga qarshi chiqadi. Bruno fikricha, vaqt materiyaning harakati va makon bilan bog'liqdir. Shuning uchun vaqt nisbiydir. Bruno vaqtni materiyaning harakati bilan bog'lar ekan uni davomiylik sifatida tushunadi. Vaqt borliqdagi osmon jismlarining harakati bilan ham bog'liqdir. Har xil moddiy jismlarning harakatlari bilan bog'liq bo'lgan vaqt ham har xil. Brunoning makon va zamon haqidagi ta'limoti uning Yangi kosmogonik nazariyani yaratishi bilan bog'liq edi.

Brunoning Yangi kosmologiyasi uning naturalistik panteizmi bilan bevosita bog'liq edi. Bruno Kopernikning kashfiyotini faqat matematik nazariya, deb hisoblashga qarshi chiqdi va uni rivojlantirib, o'zining Yangi kosmologiyasining asosiga qo'ydi. Kopernik nazariyasini maqtar ekan Bruno uni Nikolay Kuzanskiy ta'limoti bilan bog'laydi va buning natijasida Kopernikning nazariyasi Bruno kosmologik ta'limotida o'zgargan holatda ishlatiladi. J.Bruno kosmologiyasining asosiy g'oyalari Aristotel ratsionalistik formal mantig'iga asoslangan falsafiy g'oyalarga qarshi qaratilgan edi. Bruno kosmologiyasida koinot cheksiz, shuning uchun unda hech qanday markaz yo'q. Hatto quyosh ham koinotning markazini tashkil etmaydi. Cheksizlikdagi har bir nuqta markaz bo'lishi mumkin. Bu kosmologik nazariyadan Bruno olamning yagonaligi va birligi haqidagi fikrni ham shakllantiradi.

Borliqning yagonaligi haqidagi g'oya koinotdagi barcha jismlarni bir turdagi ruhlangan materiyadan tashkil topganligiga olib kelar edi. Yer va boshqa osmon jismlari bir-biri bilan bevosita aloqada va ularning harakatlari bir xil qonunlarga bo'ysunadi. Yer va yerdagi hayot koinotdagi barcha borliq jismlarga va ulardagi hayotga o'xshaydi. Tiriklik va hayotiylik materiyaning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun boshqa sayyoralarda ham hayot mavjud. Lekin uning shakllari har xil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari Bruno fikricha, kosmosdagi barcha osmon jismlari xuddi yerga o'xshash ruhlangandir. Ularni o'ziga xos ongi mavjud. Demak, boshqa osmon jismlarida ham ongli mavjudotlar bo'lishi mumkin. Butun koinot tirik, harakatda va onglidir. Koinotdagi osmon jismlari

tinimsiz harakatda bo'lgan barcha narsalar o'tkinchidir. Shuning uchun osmon jismlari va ulardagi turli tuman mavjudotlar qachonlardir paydo bo'lgan, vaqt o'ttandan so'ng yo'qoladi. Bruno shunday xulosa qiladi, koinotdagi barcha narsalar o'tkinchi, lekin koinotning o'zi abadiy. Bruno ta'limotida, koinot matyerialistik ta'limotdagi koinotdan katta farq qiladi, undagi koinot ruhlangan, ongga ega va undagi harakat manbasi qalbi bo'lgan olamiy jon mahsulidir. Brunoning panteistik ta'limoti irratsional xarakatyerga ega. Unda materiya va ruh birlashgan. Matyerializm va idealizmga xos bo'lgan birlamchilik masalasi Bruno falsafasida qo'yilmaydi, matyerialistlar ta'limotida materiya birlamchi, ruh esa ikkilamchi, idealistlarda ruh birlamchi, materiya esa ikkilamchi edi. Brunoning panteistik naturfalsafasida esa nima birlamchiyu, nima ikkilamchi masalasi qo'yilmaydi. Uning o'rniga Bruno materiyani ham ruhlangan shaklda tushunadi. Materiya o'zi Bruno uchun Ollohning qalbi bo'lgan olamiy jonning mahsulidir. Bunday dunyoqarashni XX asr falsafasida irratsionalizm, deb atashdi [3, 47]. Brunoning panteistik naturfalsafasidagi juda ko'p g'oyalar ayniqsa, makon va zamonning nisbiyligi vaqtni davomiylik sifatida tushunish, ularning harakat bilan bog'liqligi materiyaning ruhlanganligi, materiyada hayotiy jo'shqinlik mavjudligi va bu hayotiy jo'shqinlik ijodkorlik kuchini tashkil etishi XX asr fransuzcha "hayot falsafasi"ning vakili Anri Bergsonning ta'limoti bilan hamohangdir.

Brunoning fikricha, koinotning o'zi cheksiz, undagi osmon jismlari chegaralangan, ya'ni ular qachonlardir paydo bo'lgan va qachonlardir yo'qoladi. Undan tashqari bo'shliqda ularning o'z o'rnini bor. Koinot esa abadiy. Koinot hech qachon yo'qolmaydi. U harakatsiz va undan tashqarida hech qanday makon va zamon yo'q. Bo'shliq, undagi harakat kiluvchi jismlar nisbiy makon va nisbiy zamon, bularning barchasi koinotga xos. Lekin koinotning o'zi abadiy.

Brunoning panteizmi. Sxolastika falsafasi moddiy olamni chegaralangan, deb uni Olloh borlig'iga qarama-qarshi qo'yishgan. Bruno aynan shu ziddiyatga qarshi chiqadi. Xudoning cheksizligi va qudrati moddiy olamning cheksizligi orqali tajalli etadi. Undan tashqarida emas. Shunday qilib,

Brunoda tabiatdagi mutanosiblik, mukammallik va go‘zallik xudo tabiat bilan birlashib ketganligidan kelib chiqadi. Tabiat xudoga teng emas. Xudo tabiatning o‘zida mavjud va u bilan birlashib ketgan. Tabiatdagi barcha o‘zgarishlar ham xudoning yaratuvchilik qudratidan kelib chiqqan [3, 48]. Shunday qilib, Brunoda tabiat xudo, xudo tabiatdir.

Brunoning bilish nazariyasi asosida panteistik qarashlar yotadi. Xudo tabiatning ichida mavjud bo‘lib, u tabiatni ichidan o‘zgartiradi va bu o‘zgarishlar mukammaldir. Brunoning bilish nazariyasida neoplotonik sistemaga xos ayrim fikrlar mavjud. Bruno fikricha, moddiy olamdagi barcha jismlardagi jon bir xil. Bruno inson faoliyatining yyerdagi o‘zgarishlarga olib kelishi haqidagi fikrlarni keltiradi. Mehnatning rivojlanishi natijasida inson tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Insondagi tafakkur moddiy olamdagi rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Bruno o‘zining bilish nazariyasida hissiy bosqichni aqliy bosqichdan ajratadi. Hissiy bilish olamdagi murakkab qonunlarni aks ettira olmaydi.

Intellekt hissiy bilimga ta’sir etganidek, hissiy bilim ham intellektga ta’sir etadi. Ular bir-biridan foydalanishadi. Hissiy bilimdan keyingi bosqichda aql joylashgan. U hissiy bilimdagi ma’lumotlarni yig‘ib tasavvurlarni yaratadi va ulardan foydalanadi. Aqldan ham yuqorida intellekt joylashgan. Intellekt aql ma’lumotlaridan foydalanadi va ularni umumlashtiradi. Intellekt barcha ma’lumotlarni o‘rganmasdan faqat unga keraklilarini ajratadi. Bu ma’lumotlarni intellekt umumlashtiradi va ulardan foydalanadi. Intellekt barcha narsalarning mohiyatiga intilib, ularni ochishga harakat qiladi. Inson dunyoqarashining kenshgayishi sari uning intellektual salohiyati ham oshib boradi.

Bruno ta’limotida bilimning amaliy ahamiyati mistik tasavvur bilan sug‘orilgan. Brunoning fikricha, magiya bu shunday amaliy mistik kuch va san’atdirki, undan donishmand inson foydalanib uning barcha harakatlari tabiatning sirli yashiringan kuchlarini yaxshi bilishdan kelib chiqadi. Bunday sirli qoidalarni bilish insonning amaliy faoliyati darajasini kengaytiradi va bilimlardan unumli foydalanish uchun keng miqyosda imkoniyat ochib beradi.

Tabiiy magiya bu aslida tabiatdagi voqealar va hodisalarga taqlid qilishga asoslanadi va bu taqlid qilish yo‘li bilan insonning amaliy faoliyati chegaralari kengayadi. Bruno fikricha, haqiqat ob’ektivdir, amaliy va nazariy faoliyatning birlashishi natijasida unga yerishish mumkin. J.Bruno hurfikrlikni oldinga suradi. Bruno fikricha, intellekti yuqori darajada bo‘lgan shaxslar ko‘pchilikning fikriga moslashmaydi. Ularning zehnlari o‘tkir bo‘lib, kelajakni ko‘ra biladilar. Ular o‘z davrida kurtak otgan va kelajakda gullab yashnaydigan g‘oyalarni oldinga suradilar.

Bruno o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumning kamchiliklarini ko‘rib, ularni tuzatish g‘oyalarini o‘ylab chiqqan edi. U xristian cherkovining davlat ishlariga aralashishini qoralaydi va cherkovni davlatdan ajratish kerak, deb hisoblaydi [3, 48]. U sanoatni, dehqonchilikni va kasb-hunarmandchilikni rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi. Bu sohada ishlaydigan shaharliklarni mehnati ozod va erkin bo‘lishi kerak. Davlatdagi barcha vahshiy qonunlar va hurfikrlikka qarshi bo‘lgan qoidalar yo‘qotilishi kerak.

Uning fikricha, jamiyatda feodallarga berilgan imtiyozlar yo‘qotilishi kerak. Bruno jamiyatda fuqarolarning huquqlari teng bo‘lishi kerak, deb hisoblagan. Uning bu fikrlari o‘z davri uchun ham ilg‘or fikrlar edi va Yangi shakllanayotgan burjua sinfining manfaatiga to‘g‘ri kelar edi. O‘zining “Qahramonona entuziazm” asarida Bruno sinfiy tabaqalanishni oqlaydi va jamiyatda sinflarning mavjudligi zarur deb, hisoblaydi. Sinflar va shaxsiy mulk rivojlanishi zarurat, deb hisoblaydi. Shunday qilib, Bruno o‘z davrining burjua sinfi manfaatlarini himoya qilgan edi.

Uyg‘onish davrining gumanistik qarashlari o‘sha davrning tabiiyshunos fanlarining rivojlanishiga bog‘liq edi. Bu borada ikki buyuk olim Leonardo da Vinchi va Nikolay Kopernik tadqiqotlari o‘rta asr sxolastik dunyoqarashi o‘rniga, Yangi gumanistik falsafiy ta’limotning shakllanishiga olib keldi.

Leonardo ijod qilgan sohalar shu qadar xilma-xil ediki, uning zamondoshlari bunday g‘ayrat, kuch-quvvat va dahoga xos xislatlarga ham taajublanib, ham shubhalanib qarashar edi. Leonardo rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa,

arxitektura, fortifikatsiya, biologiya, botanika, geologiya, zoologiya, minyeralogiya, mexanika, astronomiya, fizika sohalarida ham ijod va kashfiyotlar kildi. Leonardoning chop etgan asarlari va kashfiyotlari shu qadar ulkan ediki, bularning barchasini bir inson yaratganiga aql bovar qilmas edi. Leonardo o'zini kamtarinlik bilan "bilimsiz" deb ovoza qilgan edi. Lekin u o'z zamonasining barcha bilimlarini egalladi. Leonardoning barcha ijodi kuzatish tajriba qo'yishlardan iborat edi.

Leonardo o'z davrining fani tomonidan qo'yilgan benihoyat murakkab masalalarni osonlik bilan echdi. Leonardo aql bovar qilmaydigan masalalarni echishga bel bog'laganda u sxolast faylasuf emas, balki buyuk olim edi. Quyoshning harakati va botishi, o'simliklarning unib chiqishi, hayvonlarning yugurishini kuzatar ekan Leonardo bu narsalarning mohiyatini ochishga harakat qildi. Bu sohadagi uning fikrlari diniy dunyoqarashdan uzoqlashib, falsafaga yaqinlashib bordi. Diniy bilimlar tajriba va eksperimentga asoslanmagan edi. Endilikda esa Yangi tabiiyshunos fanlarning asosiy quroli tajribadir va ular tajriba orqali dunyoning barcha sohalarida Yangi bilimlarni kashf etishmoqda. Fanda bahslashishlar, faqatgina munozara natijasida yuzaga kelmaydi. Leonardoning qo'ygan tajribalarida barcha jonzotlarni harakatga keltiruvchi kuch borligi uning nazariga tashlandi. Bu tabiiy kuchni o'rganish uchun Leonardo eksperimental usulni ishlab chiqdi va undan keng foydalana boshladi.

Leonardo da Vinchi (1452-1519 yillar) o'z kashfiyotlarining asosiga kuzatish va tajriba usulini qo'yadi. Uning hisobsiz suratlari va yozuvlarining yonida insonning anatomik tasviri ham berilgan edi. Murdalarni anatomik o'rganib Leonardo o'zining butun dunyoga mashhur bo'lgan asarlarini yaratdi. U barcha narsalarning yashiringan mohiyatini ochishga intilar edi. Bu maqsadga etishish uchun u xilma-xil tajribalar va kuzatishlarni amalga oshirdi. Uning ko'pgina izlanishlari Leonardo yashagan davrdan oldinga qarab ketgan edi. Masalan, Delta planning kashf qilinishi, suvosti kemasi, batiskaf va shunga o'xshash kashfiyotlar Leonardoning zamondoshlarini hayratga solar edi. U faqat rassom emas, balki haykaltarosh, olim, san'atkor, faylasuf ham bo'lgan. Bir so'z

bilan aytganda, Leonardo da Vinchi o'z davrining buyuk ensiklopedist olimlaridan edi.

Leonardo tabiiyshunos fanlarning asosida matematika qonunlari yotishi zarur deb hisoblar edi. Lekin u o'zi foydalangan o'rta asr matematikasi Yangi kashfiyotlarini tushuntirishga ojizlik qilar edi yoki bu kashfiyotlarni noto'g'ri talqin qilishga olib kelar edi. Bu kashfiyotlarni tushuntirish uchun Yangi mexanika zarur edi. Bu vazifani Leonardodan keyin Galiley bajardi. Lekin Leonardo kashf etgan narsalar o'z davrining genial injenyerlik qobiliyatini ko'rsatar edi.

Barcha tabiiy jarayonlarning asosida Leonardo zaruriyat, sabab va oqibat qonunlarini ko'radi. Bu qonunlar tabiatning ichki yashiringan xarakterini tashkil etadi. Tabiatdagi mo'tadillik va mutanosiblik Leonardoni hayratga keltiradi va bularning barchasining birlamchi sababi xudo deb hisoblaydi. Leonardo xudo tabiatni harakatga keltiruvchi birlamchi sababdir, bundan tashqari Leonardo fikricha, xudo tabiatning ichida ham mavjud. Uning bu fikrlari panteistik dunyoqarashga nihoyatda yaqin. Tabiat qonunlarini o'rganish Leonardo fikricha, inson qalbini xudoning qudrati oldidagi hayratlanish va zavqlanish holatiga olib keladi. Zaruriyat, sabab va oqibat qonunlarini o'rganar ekan Leonardo, fandagi nazariyani amaliyotdan ustun qo'yadi. Ilmiy izlanish nazariyadan boshlab, amaliyot bilan tugallanadi, deb hisoblaydi Leonardo da Vinchi. Olimning dunyoqarashida qonunlar birinchi darajali ahamiyatga ega.

Insonning joni va tanasi o'rtasidagi munosabat masalasida Leonardo ularni bir-biridan ajratmaslik kerak, deb hisoblar edi. Uning fikricha, jon tana orqali harakatga keladi, o'zining ijodkorlik faoliyatini tananing har xil kislari orqali amalga oshiradi. Tana o'limidan keyin jon olamiy jonga qo'shiladi va o'zining individual barhayotligiga ega emas. Bu masalada Leonardo da Vinchining fikri Fichino va Florensiya akademiyasidan farq qiladi.

Leonardo dunyoning markazida quyosh joylashgan deb hisoblaydi. Lekin uning bu qarashi hali to'la geliotsentrik nazariyaga o'tishni anglatmas edi. Leonardo da Vinchining geliotsentrik qarashlari ko'proq antik yunon faylasufi

Pifagorning qarashlari ostida shakllangan edi. U Galiley, Kopernik va Brunolar kabi pishshiq nazariy asos va tajribalardan kelib chiqmagan. Buning uchun Leonardoning davrida yetarli ilmiy asoslar hali vujudga kelmagan edi. Leonardo o'zining asarlarida quyoshga madhiya to'qigan Pifagor singari uni barcha jonzotlarga nur ato etuvchi eng oliy osmon jismi deb hisoblar edi. Lekin Leonardoning tadqiqotlarida astronomik tahlillar, Quyosh, Yer va boshqa sayyorlarning epitsikllari, Yangi mexanika asosida hisoblangan sayyoralarning bir-biriga nisbatan aylanish doiralari hisob-kitob qilib o'rganilmagan edi. Bu vazifani keyinchalik Kopernik bilan Galiley bajardilar. Leonardo da Vinchi yarattan dunyoqarash asosida konkret badiiy obrazlar yotadi. Aynan shu obrazlar orqali u narsalar mohiyatini ochishga harakat qildi. Uning dunyoqarashida qotib qolgan mantiqiy mulohazalarga o'rin yo'q. Yangi davrga xos bo'lgan matematik, empirik fikr yuritish ham Leonardoning dunyoqarashiga yotdir. Keyinchalik aynan shunday mexanik dunyoqarash falsafaga kirib keladi va dunyoga xos bo'lgan tiriklik va go'zallik siymosini o'ldiradi. Leonardoning falsafiy dunyoqarashida borliq, tabiat va inson ruhiy jonli va go'zal siymolar orqali tasavvur etiladi. Leonardoning bu tasavvuri uning tabiat oldida bo'lgan hayratlanishi buyuk san'atkor, rassom sifatidagi tabiatdagi barcha go'zallikni ko'ra olishdan kelib chikadi. Shunday qilib, Leonardo da Vinchi dunyoqarashi o'tmishdagi sxolastik dunyoqarashdan ham kelajakdagi mexanistik dunyoqarashdan ham keskin farq qiladi. Bunday dunyoqarash Uyg'onish davri Italiyan gumanizmiga xos bo'lgan. U tabiatni, xudoni va insonni bir-biriga bog'lagan va ulardagi go'zallik, abadiylik va ruhiy muhabbat siymolarini ochib bergan. Masalan, biz Leonardoning "madonnalar" chizilgan suratlarida ularning nigohlarida ruhiy muhabbat siymosini his kilishimiz mumkin. Leonardoning mashhur surati "Jakonda" bizni zamondoshlarimizni hayratga solishining sabablaridan biri uning sirli nigohidagi ruhiy jilvalanishdir. Shunday qilib, Leonardo konkret yer obrazlari ilohiy, ruhiy siymolarni ochishga harakat qildi.

Nikolay Kopernik (1473-1543 yillar) yashagan davrda buyuk geografik kashfiyotlar sodir bo'ldi. M. Magellan, Xristofor Kolumb kabi dengizchilarning kashfiyotlari yer shari xaritasining o'zgarishiga olib keldi. Kopernik ijod qilgan davrda univyersitetlar davrasida eski sxolastik dunyoqarash hali hukmron edi. Kopernik birinchi bo'lib bu dunyoqarashga eng kuchli zarbani berdi va Yangi geliotsentrik dunyoqarash uchun yo'l ochdi. Lekin bu geliotsentrik dunyoqarashni Kopernik kuchli kurash natijasida yaratishga muvaffaq bo'ldi. Uning asosiy asari "Osmon jismlarining harakati" deb nomlangan edi. U bu asarni o'lim bo'sag'asida yozadi.

Kopernik o'zining astronomik dunyoqarashini yaratar ekan, uning zaminida geometriya fani yotadi. Kopernik o'zining asosiy asariga yozilgan kirish so'zida kashf etgan Yangi astronomik nazariya mutlaq haqiqat emasligini qayd qilib o'tadi. Bu Yangi geliotsentrik nazariya astronomik hisob kitoblarga asoslangan nazariya deb yozadi. Kopernikning kirish so'zi uni xristian cherkovi ta'qibidan himoya qilishga qaratilgan edi. Kopernik haqiqatda ham ilmiy bilimlarni, nisbiy amaliy hayotga xizmat qiladigan bilimlar deb hisoblar edi. Uning fikricha, diniy va falsafiy bilimlar omma ongidan yuqoriroqda va ularni tushunish uchun maxsus o'qish va bilimga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, diniy haqiqat pardalangan va har qanday kimsaning nigohiga ko'rinmaydi. Antik davrdagi Ptolomey astronomik nazariyasida yer markazda joylashgan edi va shu haqiqatga asoslangan ushbu nazariyadagi hisob-kitoblar dengizchilik sohasiga yaxshi xizmat qilgan. Lekin ancha vaqt o'tgandan keyin yer atrofidagi Magellanning dengiz sayohatlari va Xristofor Kolumbning "Hindiston" deb ochgan Yangi yerlari Ptolomey nazariyasini Yangi kashfiyotlarga nisbatan nuqsonli ekanligini ko'rsatdi. Endi buyuk geografik kashfiyotlarni to'g'ri tushuntirish uchun astronomik va matematik hisob-kitoblarda o'zgartirishlar kiritilishi kerak edi. Bu esa yer shari Quyosh va boshqa sayyoralarni o'z o'qi va bir-biri atrofida aylanadigan doiralarni Yangidan hisoblashga olib keldi. Bu hisoblashlar Yer va Quyoshni aylanish doiralarini Ptolomey nazariyasiga nisbatan butunlay boshqacha joylashganligini ko'rsatar edi. Kopernikning

olib borgan geometrik va matematik hisob-kitoblari bo'yicha Quyosh Yer atrofida emas, Yer Quyosh atrofida aylanadi.

Epitsikllarni, ya'ni doira shakllarini matematik va geometrik parametrlarini hisoblash Kopernikni geliotsentrik nazariya kashfiyotiga olib keldi. Lekin Kopernik bu nazariyani falsafiy darajaga ko'tarmadi, umumlashtirmadi. Uning fikricha, tabiiyshunos bilimlarning chegaralari nisbiydir va ular kashf etgan haqiqat ham nisbiydir. "Tavrot" va "Injil"dagi bilimlar inson tafakkuri chegarasidan tashqaridagi bilimlar, ulardagi haqiqatni ilm-fan o'lchovi bilan o'lchash Kopernikning fikricha xatodir. Yangi davrda fransuz matyerialistlari "Tavrot" va "Injil"dagi bilimlarni tanqid qilishganda Kopernikning bu ogohlantirishiga e'tibor berishmadi. Vaholanki, Ptolomeyning nazariyasi ham o'z davrida nisbiy haqiqat bo'lgan va u Evklidning uch o'lchamli fazo geometriyasiga asoslangan. Kopernik nazariyasidagi geometriya Evklid geometriyasi edi.

XIX asrga kelib, Evklid geometriyasi Lobachevskiy tomonidan tahlil qilindi va Lobachevskiy Evklid geometriyasidan mutlaq farq qiladigan o'z geometriyasini yaratdi. Bu geometriyaga binoan qiyshiq fazoda hech qanday markaz yo'k. Demak, Quyosh ham koinotning markazi bo'la olmaydi. XX asrga kelib Albert Eynshteyn o'zining nisbiylik nazariyasini kashf etdi.

Bu nazariyaga binoan vaqt ham, makon ham nisbiydir. Demak, Quyoshni Yerga, Yerni esa Quyoshga nisbatan aylanish doiralari nisbiydir va ular koinotning evalyusiyasi jarayonida joy almashishlari mumkin. Ptolomeyning astronomik nazariyasi o'z davri uchun haqiqat bo'lgan. Hozirgi zamon fan tarixini o'rganish aynan shu xulosaga olib keladi.

Leonardo da Vinchi va Kopernik dunyoqarashini tabiiyshunoslikning falsafiy nazariyasi deb atashimiz mumkin. Ular bilan bir qatorda Vezoliy Syervet, CHezolyino, Gilbert kabi tabiiyshunos olimlarning qarashlarini naturfalsafa deb atash mumkin. Uyg'onish davrinnng naturfalsafasiga afsonaviy, mistik va magik qarashlar ham xos bo'lgan. Ularning bunday qarashlari Leonardo da Vinchi va Kopernik qarashlaridan katta farq qilar edi. Oxirgi ikkita olimning qarashi fan chegarasidan chiqib ketmas edi. Naturfaylasuflarning qarashi esa fan

chegaralarini beqiyos surib tashladi va afsonaviy mistik qarashlarni ham o'zining bilimlar doirasiga kiritdi. Ularga katta o'rin ajratdi. Shu bilan bir qatorda naturfaylasuflar Leonardo da Vinchi va Kopernikning ilmiy g'oyalari va myerosini saqlab qolishdi va kelajak avlodlarga myeros sifatida qoldirishdi. Ularning bu xizmatlari ham hurmatga sazovordir. Naturfaylasuflar moddiy dunyo bilan chegaralanib qolmay, biz bilmagan sirli olamni o'rganishga kirishdilar. Ularning bu harakatlari kelajakda XVIII-XIX asrlarda nemis naturfalsafiy qarashlarida qayta tiklandi.

Italiya falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan faylasuflardan yana biri **Bernardino Telezio** (1509—1588)dir. U falsafiy akademiya tashkil qilib, unda o'rta asr aristotelchiligiga qarshi tabiatni tajribaviy tekshirishni targ'ib qilgan. Telezioning asosiy falsafiy asari "O'z nomlariga monand bo'lgan narsalar tabiati haqida" kitobidir. Telezioning ta'limoticha, abadiy va o'zgarmas materiya mavjud bo'lib, u ob'ektivdir. U yaratilmagan va yo'qolmaydi ham. Shu bilan birga tabiatda hamma jismlarning jonlanganligi haqidagi fikrga ham qo'shiladi. Materiya harakatining manbai, Telezio ta'limoticha, issiqlik va sovuqlik o'rtasidagi qarama-qarshilikdir.

Bruno qarashlarini rivojlantirgan, ilmiy dunyoqarash rivojiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlardan biri **Galileo Galiley** (1564—1641 yillar)dir. U Piza shahrida tug'ildi. 1661 yilda Rim akademiasining a'zosi bo'ladi. U qomusiy olim bo'lib, matematik, fizik, astronom, faylasuf, va san'atshunos edi.

Galiley ilk bora osmonni teleskop vositasida 1609 kuzatdi. Teleskopni "Somon yo'li"ga qaratgan olim uning son-sanoqsiz yulduzlardan iborat ekanini ko'rdi. Bu hayratomuz kashfiyot edi. Galiley o'z kuzatuvlariga oid xulosalarini keyinroq chop etilgan "Yulduzlar axborotnomasi" deb nomlanuvchi asarida bayon etadi. U bunday yozgan edi: "Somon yo'li" yulduzlar to'plangan cheksiz hududdan boshqa narsa emas. Tomosha quvurini uning qaysi qismiga qaratmang, ko'z o'ngingizda son-sanoqsiz yulduzlar namoyon bo'ladi". Shunday qilib, Galiley Demokritning taxminlari to'g'ri ekanini isbotladi. Demokrit ham "Somon yo'li" behisob yulduzlardan iborat deya faraz qilgan edi. Biroq Galiley faqat yulduzlarni

kuzatish bilan cheklanmadi. U Oyning yuza qismidagi kraterlarni ko‘rdi va fazalarini aniqladi. Olimning diqqatiga molik eng muhim kashfiyotlaridan biri Yupiterning to‘rtta yo‘ldoshini aniqlashidir. Bu kashfiyot Kopernikning Quyosh tizimi markazida Yer emas, balki Quyosh turishi borasidagi nazariyasini tasdiqladi. O‘sha zamondagi geotsentrik qarashlarda osmon jismlari Yer atrofida aylanadi, deb ta’kidlanar edi. Yupiter yo‘ldoshlarining kashf etilishi buni inkor etdi.

Galileyning tabiatshunoslikdagi xizmatlaridan biri shuki, u harakat haqida hukmron bo‘lgan o‘rta asr sxolastik ta’limotni inkor qiladi. U o‘z tajribalariga asoslangan holda Yangi tajribaviy mexanikaga asos soldi. Jismlarniig harakati doimiy kuch tasiri natijasida doimiy harakat bilan amalga oshadi, deb o‘ylardilar. Galiley esa, jismlarning harakati bir xil vaqt o‘lchovida o‘sha darajada oshib boradi, deydi. Uning ta’limoticha, birorta jismga berilgan harakat o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketmaydi, balki uni bironta tashqi predmet qabul qilmaguncha to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tekis harakat qiladi. Galileyning astronomiya sohasidagi kuzatishlari katta ahamiyatga ega edi. 1609 yilda u mustaqil ravishda teleskop yasaydi. Birinchi marta u tufayli osmon sirlarini bilish imkoniyati tug‘iladi. Galiley Yupiter yo‘ldoshlarini, Quyosh yuzidagi dog‘ni kashf qildi, Oy sathida chuqurlik va tog‘lar mavjudligini aniqladi. Astronomiyada teleskopning kashf qilinishi fanda haqiqiy inqilob yasadi.

Galiley Kopernikning tarafdori edi. Galileyning juda ko‘p astronomik kashfiyotlari geliotsentrik nazariya foydasiga hal bo‘ladi. Natijada bu masalalar faqat ma’lumotli odamlar o‘rtasida emas, balki oddiy xalq o‘rtasida ham keskin bahslashuvlarga sabab bo‘ldi. Galileyni “Osmon Kolumbi” deb ataydilar. 1632 yili Galileyning “Dunyoning ikki asosiy tizimi—Ptolomey va Kopernik tizimi haqida dialog” asari nashr qilinadi. Bunda uchta bahslashuvchi bu ikki tizimning fazilatlari haqida baxs yuritadi. Dialogning asosiy mazmuni shunga kelib taqaladiki, natijada Kopernik tizimining ustunligi isbot qilinadi.

Galileyning asarlari tabiatshunoslik va falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Uning falsafasi mexanistik xarakterda bo‘lib, u ilohiyotchilik va sxolastik dunyoqarashga qarshi kurashda muhim bo‘ldi. Galiley moddiy dunyoning ob’ektiv

mavjudligini e'tirof etadi. Bu dunyo abadiy va cheksiz, mutlaq, yo'qolib ketmaydi, hech narsa, hech nimadan paydo bo'lmaydi. Faqat jismlar o'rtasida o'zgarish sodir bo'ladi. Galiley Yunoniston atomistlarining ta'limotini o'zgartiradi. Uning ta'limoticha, materiya mutlaq o'zgarmas atomlardan tashkil topgan. Masalan, olov - bu ma'lum shakl va massada bo'lgan juda ko'p atomlarning maxsus yig'indisidir. Materiyaning butun xususiyati o'lchovsiz, sof miqdoriy elementlardan iborat. Uning harakati esa yagona, univyersal mexanik harakatdir. Materiya - bu borliqning imkoniyati emas, balki real borliqning o'zidir.

Galileyning bilish nazariyasi ham falsafa tarixida izchil rol o'ynadi. U sxolastlarning haqiqat taniqli nufuzlarning fikrini solishtirish bilan aniqlanadi, degan ta'limotini tanqil qiladi. Uning ta'limoticha, fanning asosi tajriba, "bizning ko'zimiz oldida ochiq bo'lgan ulug' kitobda yozilgan, haqiqiy falsafadir. Bu kitob - koinot, tabiatdir. Uni uqishni o'rganish kerak. Shuning uchun ham garchi Galileyning xulosalari ko'p kishilarning fikriga qarshi chiqsa ham, aql va tajribaga mos kelsa, u bundan qayg'urmagan. Galiley ilmiy bilish erkinligining tarafdori bo'lgai. Galileyning fikricha, ikki kitob mavjud. Tabiat kitobi va najot kitobi. Bu bilan Galiley hukmron teologik dunyoqarashga bo'ysunadi. Uning fikricha, din ko'proq axloqiy ahamiyatga ega, aql din ishlariga aloqador emas. Lekin din ilmiy ishlarda e'tiborga ega emas. Xudo tomonidan tabiatga daslabki turtki berilgan keyin, u o'z-o'zicha, o'zining o'zgarmas, tabiiy qonunlari bilan rivojlanaveradi. Galiley haqiqatni nufuzli shaxslar matnlarini solishtirish bilan emas, balki tajriba bilan aniqlash mumkin, deydi. Haqiqatni bilish, Galiley ta'limoticha, moddiy jismlar va ular harakatining kattaligini, shaklini va miqdorini bilishdir. Lekin Galiley xatoga yo'l qo'yib, jismlar ta'm, rang, hid va boshqa xususiyatlarining ob'ektiv mavjudligini inkor qiladi. U materiyaning faqat miqdoriy xususiyatlarini ob'ektiv deb hisoblaydi. Masalan, u shunday deb yozadi: "Men hech mahal tashqi jismlardan kattalik, figura, miqdor va harakatdan boshqa narsalarni talab qilmayman" [1, 197].

Galileyning bilish nazariyasicha, sezgilar bilishning boshlanishidir, yuqori bosqichi esa aql faoliyati bilan tugallanadi. Miqdoriy hissiy tahlil uning

ma'lumotlarini aqliy tiklash bilan davom ettiriladi. Analitik usul keyin sintetik usul bilan almashinadi. Galiley ta'limoticha, hodisalarni oddiy tavsiflash bilan to'xtamasdan, sababiy aloqalar, qonunlarni bilish darajasiga etkazish lozim. Sababiy aloqani bilib olgandan keyin, noma'lum bo'lgan hodisalarni bilish mumkin. Galileyning ontologik va gnosologik ta'limoti falsafa rivoji tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yakob Byome (1565-1624 yillar) ta'limoti o'rta asr mistik oppozitsion qarashlarining ajralmas bir qismi edi. Bu qarashlarga binoan inson va tabiat, tabiat va xudo bir-biridan ajralmas yagona borliq. Inson qalbidagi ilohiy zarra orqali bevosita xudo bilan aloqada bo'lishi mumkin va xristian katolik cherkovining vositachilik ahamiyati ham shu bilan barham topadi. Bunday mistik qarashlar xristian katolik cherkoviga qarshi qaratilgan edi, shuning uchun cherkov tomonidan shavqatsiz ta'qib etilgan.

Yakob Byome Galileyning zamondoshi bo'lishiga qaramasdan, o'zining fikrlari va panteistik qarashlari bo'yicha Uyg'onish davrining eng oxirgi, yakunlovchi davriga tegishlidir.

Yakob 1575 yil Saksoniyadagi Gyermets shahri dehqon oilasida tug'iladi. Yakob Byome bolalik davrida ota-onasi shaharga etikdo'zlik kasbini o'rganishga berib yuborishadi. Byome falsafani mustaqil ravishda o'rgandi. U hech qanday oliy ilimgohni bitirmaydi. Sxolastik falsafadan ancha chetda bo'lgan faylasuflardan biri edi. Uning uchun falsafiy bilimlarning asosi "Tavrot" va "Injil" edi.

Yakob Byome mistik qarashlariga Paratselsning ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Xuddi Paratselsga o'xshab Byome ham tabiatni sirli ilohiy qudrat manbasi deb hisoblar edi. Tabiatdagi bu mistik sirli kuchlarni alximiya va astrologiyadagi mahfiy bilimlar orqali ishlatish va ulardan foydalanish mumkin. Byome magiyani tan olgan va uni o'rganishga kirishgan edi.

Yakob Byome asarlari teosofik xaraktyerga egadir. Uning birinchi asari, "Avrora yoki yerta tong" deb atalgan edi va Lyutyeran cherkovining g'azabini keltirgan. Cherkov Byomeni jodugarlikda va shirk keltirishda ayblagan va

Gyermets shahridan surgun qilish haqida qaror chiqargan. Byome Gyermetsdan chiqib Drezdenga etib keladi va bu yyerda Saksoniya kyurfesting saroyida bir muncha vaqt yashaydi. U saroy ahli e'tiborini o'ziga tortib teosofik qarashlari bilan hayratga soldi. Drezdendan o'ziga homiy topa olmagandan keyin Byome Gyermetsga qaytayotganida yo'lda og'ir kasal bo'lib qoladi va 1624 -yilda vafot etadi. Uni zo'rg'a xristian cherkovi urf-odatlariga ko'ra dafn etishadi. Lekin 200 -yildan keyin Gyermets shahrining aholisi uning xotirasini abadiylashtirib, unga haykal o'rnatadi.

Byomening teosofik qarashlari. Yakob Byome diniy naturfaylasufdir. Uning qarashlari Uyg'onish davri gumanistlari qarashlaridan keskin farq qiladi. Uning falsafiy qarashlariga teosentrizm ruhiyati xos edi. Byome fikricha, tabiat mohiyatini inson tabiiyshunos bilimlarga asoslangan tarzda emas, balki o'zining intuitiv dunyoqarashiga asoslangan holda bilish mumkin. Byomening o'zi ham o'zining falsafiy qarashlarida go'zal, badiiy timsoldan keng foydalanadi. Bu timsollar asosida inson, tabiat va xudo o'rtasidagi aloqalarni ifodalaydi. Byome fikricha, borliq bular o'rtasidagi dialektik munosabatlardan tashkil topadi.

Byome asarlarida kitobxon mantiqiy izchillik, tarixiylik, davriylik va boshqa falsafiy sistemaga xos bo'lgan talablarga binoan qurilgan yaxlitlikni topa olmaydi. Lekin, uning asarlari markazida xudoning borligi g'oyasi yotadi va muallifning barcha fikrlari xudo g'oyasi bilan birlashadi. Buni biz quyoshdan taralayotgan nurlarga o'xshatishimiz mumkin. Quyosh-bu xudo g'oyasi bo'lsa undan taralayotgan nurlar esa Byomening barcha falsafiy fikrlari va g'oyalaridir. Byome asarlariga intuitiv dunyoqarash xos bo'lganligi uchun u ratsional sistemaga o'xshab qurilmagan. Uning falsafasi markazida xudo g'oyasi joylashgan va barcha boshqa g'oyalar badiiy obrazlar (timsoli) orqali bu bilan birlashadi. Vaholanki, ratsional dunyoqarashda faylasufning fikrlari bir-biridan mantiqiy izchilik bilan kelib chiqishi kerak. Bu talab fanlarning ratsional talablariga ham to'g'ri keladi. Byome asarlarining barchasi bularga to'g'ri kelmaydi. Byome asaridagi yaxlitlik irratsional xaraktyerga egadir.

Byome fikricha, xudo - bu eng oliy birlikdir. Xudoda barcha narsalar, beqiyos xilma-xil olam birlashadi. Lekin, faqat buni tan olishgina yetarli emas. Byome fikricha, xudo borlig'ini inson tafakkuri tahlil qila olmaydi. Bu shunday sirli borliqki, Xudoning o'zi ham o'z borlig'i haqida tushunchaga ega emas. Xudo bu borliqning o'zi va u har qanday bilimdan ustun, olamni doimiy o'zgarishi xudoning yaratish qudrati bilan bog'liq. Olam va xudoning o'zi ham cheksiz bor, harakatda va yaratilish jarayonidadir. Xudoning o'zi o'zgarmas bo'lsa ham, u o'zining yaratish qudrati orqali doimiy o'zgarishda va yaratilish jarayonida bo'ladi. Olamdagi barcha narsalar yer va osmon, sanamlar va butlar bular barchasi xudodir. "Ey nodon inson, - deydi Byome o'zining "Yerta tong yoki Avrora" asarida, - sen xudoni borliqdan tashqarida axtarmagin, u borliq ichida, pardalar orqasida yashiringan. Xudoni yashirgan pardalar esa moddiy olamdagi o'tkinchi narsalardir. Ularning barchasi xudoning liboslari va xilma-xil kiyimlaridir" [2, 69].

XV asr oxiri - XVI asr boshlari Italiyan gumanizmi quyoshining botishiga to'g'ri keladi. Bu davrda gumanistlarning "oltin davr" haqidagi umidlari chilparchin bo'ldi. Butun Italiyani larzaga keltirgan ichki nizo va urushlar bu davlatni bir necha asrga turg'unlik botqog'iga botishiga sabab bo'ldi va natijada Italiya Yevropaning qoloq davlatiga aylanib qoldi. Italiyaning respublika shaharlari o'z manfaatlarini doirasida chegaralanib qoldi. Italiyada yagona milliy davlatga asos soluvchi biron-bir siyosiy kuch topilmadi. Xatto Angliya, Fransiya, Ispaniyada hukm surgan absolyut monarxiyaga o'xshash davlatni yaratishga Italiyaning mayda hukmdorlari jur'at eta olmadilar. Ularning ichida bunday vazifani bajara oladigan kuchli rahbar, diniy rahnomo topilmadi. Aynan shunday murakkab siyosiy vaziyatda Nikolo Makiavellining ta'limoti yuzaga keldi.

Nikolo Makiavelli (1469-1527 yillar) Florensiya respublikasining kambag'allashib qolgan nobillar oilasidan edi. Nikolo Makiavelli 1469 yil yurist oilasida tug'iladi. Otasining daromadi past bo'lganligi uchun Nikolo univversitetda o'qiy olmadi. U mustaqil ta'lim oldi. Lotin tilini mukammal egallab, antik davr faylasuflari va shoirlarining asarlarini qunt bilan o'qidi.

Makiavelli Florensiyaning neoplatonik akademiyasidagi qarashlariga mutlaq befarq edi. Uni o'rta asr univyersitetlarining sxolastik ta'limoti ham qiziqtirmas edi. Ammo yosh Nikolo "narsalar tabiati" haqidagi Lukretsiyning asarini katta e'tibor bilan o'qidi va tahlil qildi.

1498 yil o'ttiz yoshli Nikolo Makiavelli Florensiyaning siyosiy sahnasida birinchi bor paydo bo'ldi. U ikkinchi konselyariyaning ilmiy kotibi bo'lib saylandi. Keyinchalik esa Florensiya hukumatining 10 ta hukmdoridan tashkil etilgan kengashiga kotib bo'lib saylandi.

O'n to'rt yil davomida Nikolo Florensiya hukumatining muhim siyosiy vazifalarini bajarib, Fransiya, Gyermaniya va Rimga diplomatik ishlar bilan borib keladi. Uning katta siyosiy bilimdonlik bilan yozilgan asarlari Italiya va Yevropa davlatlaridagi siyosiy ahvolni yaxshi bilishdan dalolat berar edi.

1512 yilda Medichi hukmronligi tiklanganidan keyin Makiavelli siyosiy hayotdan chetda qoldi. Uni fitnada ayblab qamoqqa olishdi. Keyinchalik esa qishloqdagi dala hovlisiga jo'natib yuborishdi. Ikkinchi bor Medichi hukmronligi tugatilgandan keyin Florensiya respublikasi yana tiklandi. Ammo bu ikkinchi respublika o'zining katta kengashida Makiavellining xizmatiga muhtoj emasligini bayon qildi. Bunday qarorga ko'nika olmagan Makiavelli 27 iyun 1527 -yilda vafot etdi. Surgun paytida Makiavelli o'zining asosiy asarlarini yaratdi. Bular: "Hukmdor", "Florensiya respublikasining tarixidan Tit Liviyning birinchi dekadasiga mansub bo'lgan mulohazalar", "Mandragora" komediyasi va boshqalar.

Makiavellining yaratgan tarixida ilohiy qudrat uchun joy yo'q. Jamiyatdagi barcha voqealar va hodisalar uning fikricha, tabiiy qonunlarga binoan sodir bo'ladi. Davlat to'ntarishlari, siyosiy tuzum o'zgarishlarining asosiy sababi Makiavelli fikricha, inson tabiatiga borib taqaladi. "Tarixiy voqealarni tahlil qilib, - deb yozadi Makiavelli, - jamiyat doimo bir xil ekan degan fikrga keldim. Unda doimo yaxshilik va yomonlik o'rtasida kurash ketadi. Lekin bu kurash har xil shakllarda bo'lib, bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tib turadi" [1, 198].

Makiavelli fikricha, barcha davlatlar paydo bo‘ladi rivojlanadi va nihoyat inqirozga uchraydi. Bu xuddi tabiatdagi girdob harakatiga o‘xshaydir. “Har bir davlatning va hukmdorning hayotini belgilovchi taqdiri bordir. Taqdirdagi o‘zgarishlar inson harakatiga ham bog‘liqdir. Uning faolligi yoki sustkashligi taqdirdagi o‘zgarishlarga ham ta’sir qiladi” [1, 198], - deb yozadi Makiavelli.

Makiavelli fikricha, inson faqat taqdirga bo‘ysunib yashashi xatodir. U o‘z qo‘lidan kelgan faoliyatni yuritishi kerak va bu faoliyat orqali u o‘z taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi. “Taqdir xuddi asov daryoga o‘xshaydi, u yo‘lida duch kelgan barcha narsalarni oqizib yuboradi. Ammo bu daryoning o‘zani va oqimini bilgan siyosatchi ehtiyotkorlik bilan oldindan harakat qilishi mumkin. U xavf-xatarni oldini olish uchun daryoning ayrim joylariga to‘g‘on qurishi mumkin va bu to‘g‘onlar orqali o‘zini xavf-xatardan asraydi. Taqdir o‘yinlarida omad ko‘proq tavakkal qiluvchilarga kulib boqadi” [1, 199], deb yozadi Makiavelli.

Insonlar tomonidan sodir bo‘ladigan buzg‘unchiliklarga qarshi davlat qonun-qoidalar ishlab chiqaradi. Dinning kelib chiqishi masalasiga to‘xtab Makiavelli bu masalani uning ijtimoiy zaruriyatdan paydo bo‘lganligini uqitirib o‘tadi. Xalq birligini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy kuchlardan biri bu dindir. Xristian dinining axloqiy asoslari Makiavelli davridagi biron-bir Yevropa davlatlarida e’tiborga olinmadi. Agar bu axloqiy prinsiplarga rioya qilinganda, Yevropa davlatlari o‘rtasidagi nizolarga barham berilgan bo‘lardir, deb hisoblaydi Makiavelli. Makiavelli Rim katolik cherkovini axloqsizlikda ayblab qoralaydi va bu cherkovning faoliyati ko‘p fuqarolarni yo‘ldan adashishiga sabab bo‘ldi deydi. Jamiyatdagi barcha buzg‘unchiliklar Makiavelli fikricha, diniy, axloqiy qarashlar ularga to‘siq bo‘lishi mumkin edi, lekin diniy rahbarlarning nafs va hirsga berilib ketishi natijasida din o‘zining ijobiy natijasini bajarmay qo‘ydi.

Makiavelli nazarida din, axloq va siyosatga o‘xshab davlat tuzumida bo‘ysungan va ikkinchi darajali o‘rin egallaydi. Din davlatni boshqarish vazifasini endilikda bajarmaydi. Din ko‘proq fuqarolarning xususiy ishiga aylanib qolgan va davlat tomonidan nazorat qilinadi. U fozil davlatlar haqidagi asarlarga tanqidiy

yondashadi. O‘zining ziddiyatli va qarama-qarshiliklarga to‘la zamonasida bunday fozil davlatning paydo bo‘lishi Makiavelli fikricha, hech qanday mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Makiavelli yomonlik va yaxshilik o‘rtasidagi chegarani nisbiy deb hisoblaydi va payti kelganda yomonlikdan qurol sifatida foydalanish mumkin deb hukmdorlarga maslahat beradi. Makiavelli fikricha, barcha usullarni oqlaydigan yagona maqsad bu milliy davlatdir. Yagona markazlashgan davlatni yaratish yo‘lida har qanday usullar o‘zini oqlaydi.

Davlat manfaatlari yo‘lida diniy va ma‘naviy qadriyatlar ham qurbon qilinishi mumkin. Makiavelli yagona milliy davlatning shakllanishi jarayonida xalq rolini yuqori baholaydi. Jamiyatda oddiy xalq va zodagonlar o‘rtasida kurash ketadi. Shu kurash natijasida hurfikrlik mavjuddir. Makiavelli Rim respublikasining qudrati va erkinligi plebey va patriitsiyalar o‘rtasidagi kurashning natijasi edi. Bu kurash o‘z nihoyasiga etgandan keyin respublika o‘rnida impyeriya paydo bo‘ldi. Rim impyeriyasida esa kurash sustkashlik bilan ketdi. Impyerator barcha tabaqalarni o‘ziga bo‘ysundirib olgan va impyerator davlat manfaatlari deb o‘zining shaxsiy manfaatlari va xohishlarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Natijada impyeriya chuqur ruhiy tubanlik va inqirozga uchradi va o‘z intihosiga etdi. Hukmdor Makiavelli fikricha, zadogonlarni avom xalqning manfaatlarini birdek ko‘rishi lozim. Makiavelli avom xalq deb atagan tabaqa aslida esa shaharning o‘rta xol xususiy mulk egalari edi.

Italiyada bu tabaqadagi kishilarni nobelllar deb atashar va Makiavelli xalq deb atagan tabaqa aslida o‘rta hol burjuaziya sinfi edi. Makiavelli zodagonlar deb ataganlar esa yirik yer egalari va feodallar edi. “Men dvoryanlar deb atagan tabaqa bu yirik yer egalari. Ular hech qanday foydali mehnat qilmaydilar. Ularning butun hayoti tekinxo‘rlik va topgan tutganini eb ichish bilan o‘tadi. Ularning butun hayoti bazmu jamshid bo‘lib, o‘z vatani va xalqiga hech qanday foyda keltirmaydilar” [1, 200], - deb yozadi Makiavelli.

Tomas Mor Londonda 1478 yil qirol sudyasining oilasida tug‘iladi. Grammatik maktabidagi o‘qish unga lotin tilini yaxshi egallashga imkoniyat berdi.

Yoshlik davrida Tomas Mor Kentyerbereylik arxiepiskop Jon Mortanning oilasida xizmat qiladi. Arxiepiskopning xonadonida o'sha davrning mashhur yozuvchilari, olimlari, sayohatchilari, siyosatchilari va ruhoniylari tez-tez yig'ilib turishar edi.

XV asrning 90 yillarida arxiepiskopning maslahatiga binoan Tomas Mor gumanistik qarashlarning markaziga aylangan Oksford univyersitetining kolledjida ta'lim oladi. Kolledjdagi o'qishni tamomlagach, Tomas Mor Londonning yuridik maktabini bitirib, yurist va advokat sifatida xizmat qiladi. Yosh sudyaning halloligi va o'tkir zehni unga katta hurmat va e'tibor keltiradi va Tomas Mor Angliya parlamentining umumiy palatasiga saylanadi. Tomas Morning siyosiy faoliyati Angliya qiroli Genrix II ning iqtisodiy talablariga qarshi chiqishdan boshlandi. Morning bu harakatlari umumiy palata deputatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

XVI asrning boshlarida Tomas Mor Oksford gumanistlari qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi, antik yozuvchilari va faylasuflari asarlarini Italiyan faylasufi Piko della Mirandolaning tarjimai holini va xatlarini ingliz tiliga tarjima qiladi. O'zining yozuvchilik ijodini Mor London shyerifiga yordamchi sifatidagi xizmati bilan birlashtiradi.

Qirol Genrix III ga fidokorona xizmat qilganligi uchun Tomas Mor qirol kengashining a'zosi etib saylanadi. Keyingi yillarda Tomas Mor muhim davlat mansablarini egallaydi va nihoyat Angliyaning lord-kanslyeri darajasiga ko'tariladi. Genrix III tomonidan Angliyada o'tkazilgan reformatsiya Tomas Morda keskin norozilik uyg'otdi. Tomas Mor Yevropada yagona xristian katolik cherkovi hukmronligini saqlab qolish tarafdori edi. U Martin Lyutyer Genrix III ning reformatsion harakatlariga qarshi chiqdi.

Tomas Mor Angliyada fyermyerlar yerini tortib olish siyosatiga qarshi chiqadi. "Qo'ylar odamlarni edi" degan mashhur ibora Tomas Morga tegishli edi. Qirolning qonunbuzar harakatlariga qarshi chiqqan Tomas Mor Tauyer qamoqxonasiga tashlanadi va uzoq davom etgan sud jarayonidan keyin 6 iyul 1535 yilda qatl qilinadi. Tomas Morning qahramonona harakatlari gumanistlarning

inson hurmati, ruhiy ozodligi va hurfikrligiga butkul to'g'ri kelar edi. Morning qatl qilinishi Yevropadagi gumanistik harakatni o'z nihoyasiga etganligidan dalolat berar edi.

Ilk bor kapitalizm jamiyatidagi ziddiyatlarga qarshi chiqqan Tomas Mor o'zining "Utopiya" asarida bu ziddiyatlarni tanqid qilib, sinfsiz ijtimoiy tenglik mavjud bo'lgan jamiyat timoslini yaratadi. Tomas Morning "Utopiya" asari gumanistlarning siyosiy axloqiy qarashlari bilan bevosita bog'liq edi.

"Utopiya" asarida Tomas Mor o'zi yashagan Angliya siyosiy tuzumini keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, xususiy mulkchilikka asoslangan bu davlat tuzumini kambag'al dehqonlarga qarshi qilgan zulumlarini, daydilarga qarshi chiqarilgan qonunlarni qoralaydi.

Daydilikning sababi Mor fikricha, o'z yerini yo'qotib qo'ygan dehqonlarning kelib chiqishidandir. Bu dehqonlarga davlat tomonidan qilinadigan zulumlar xalq sabr kosasini to'ldirib yubordi deydi. Mor davlat boyligini yaratuvchi bu dehqonlar yovvoyi hayvonlar kabi yashaydilar. Ularni qismati har qanday vijdonli odamni norozi bo'lishiga olib keladi. Davlat ularga yordam o'rniga quvg'in qiladi va qamoqxonalarga tashlaydi. Ularning peshonalariga esa tamg'a uriladi. Ularning oilasi bola-chaqasi ham daydilarga aylanib, Angliya yo'llarida darbadardirlar.

Ularning bir qismitina shaharlarda eng qashshoq lyumpen qatlamini tashkil etadi. Ko'pchiligi esa qamoqxonalarda va surgunlarda azob-uqubat va surgunlarga chiday olmay jon beradi. Bunday adolatsiz tuzumni Tomas Mor butun borlig'i bilan qoralaydi. Umumiy mulkchilikka asoslangan tuzum haqida yozar ekan. Tomas Mor Injil va Tavrotda ham bu haqida aniq fikrlar keltirib o'tishganligini aytadi. Uning fikricha, insondagi qabihlik nafs va hirsning zo'rligidan kelib chiqadi, inson ular ustidan nazoratni yo'qotib qo'ysa, har qanday razillikka qodir bo'lib qoladi.

Xudo buni oldindan ko'ra olganligi uchun, deb yozadi Mor insonlarni ko'proq umumiy manfaatlarni o'ylashga da'vat etadi. Iso Masih ham ilk bor

xristianlarga jamoa bo'lib yashashga va umumiy mulkka ega bo'lishga maslahat bergan. Xususiyl mulkchilik Morning fikricha, insondagi eng tuban xislatlarni rivojlantiradi va jamiyatni shahvatparastlik, tubanlik va poraxo'rlik domiga tortadi.

Morning "Utopiya" asaridagi afsonaviyl shahar "Tavrot" va "Injil"da ko'rsatib o'tilgan "Fozil davlat"ga o'xshab ketadi. Bu orolda joylashgan shaharda ish kuni bor yo'g'i olti soatni tashkil etadi. Qolgan vaqtni esa "Utopiya"liklar o'z-o'zini rivojlanish dam olish, ilm fan bilan shug'ullanishga bag'ishlaydilar. O'z falsafasining markaziga Tomas Mor axloqiy masalalarni qo'yadi. Uning fikricha, jamiyatning rivojlanishi fuqarolarning halolligi, vijdonliligiga bog'liq.

Xudo insonni ozod va erkin qilib yaratdi va unga barcha narsalarning meyor o'lchamini berdi. Toki inson o'z nafsi dardida bu me'yorni unutar ekan baxt-saodatga etishishi ancha mushkuldir. Boshqa jonzotlarga nisbatan xudo insonga o'z-o'zini anglash, o'z xatolarini tushunib etish qobiliyatini ham bergan. Bundan kelib chiqib odamlar jamiyat tuzumini o'zgartirishlari va adolatli tuzum barpo etishlari mumkin.

Baxt nima degan savolga javob berar ekanlar, utopiyaliklar Epikur ta'limotiga yon bosadilar va dunyoviy lazzatdan rohatlanishni baxt deb hisoblaydilar. Morning "Utopiya"sida o'rta asr xristian diniga xos bo'lgan tarkidunyochilik g'oyasini tanqid qiladi. Insonga berilgan buyuk ne'matlardan biri salomatligidir. Inson uning qadriga etishi va asrab avaylashi kerak. Utopiyaliklarda diniyl e'tiqod va tafakkur bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, ular bir-birini to'ldirib turadi.

Tomazzo Kampanella 1568 yilda Kalabrining Stilo shahrida kambag'al etikdo'z oilasida tug'ildi. Uning ismi Jovanni Domeniko edi. U tug'ilishidan sakkiz yil ilgari Italiyaning janubi "dahriylar"ning o'liklari bilan to'la edi. Inkvizitsiya davrida 1600 nafar inson o'limga mahkum etildi. Italiya Papa va okkupant-ispantlarning iskanjasida qolgan edi. Jovanni 10 yoshga to'lganida, otasining o'g'lini o'qishi u yoqda tursin, qirolga soliq to'lashga sariq chaqasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham bola maktabning ochiq dyerazasini oldida turib, o'qituvchilarning o'gitini tinglaydi. Jovanni mustaqil ravishda o'qishni va yozishni

o'rganadi. Lotin va yunon tillarini o'zlashtiradi. Jovannini Stilo shahrida rohib-dominikanchi uchratib qoladi. U bolaga ordenga kirishga taklif qiladi. Uning uchun boshqa yo'lning o'zi yo'q edi, chunki o'qishga bo'lgan chanqog'i shu yo'lga etaklaydi. Jovanni 15 yoshga kirganda rohib bo'ladi va Tomazzo ismi qo'yiladi. Aynan shu ism bilan u tarixda qoladi.

Tomazzo hamma vaqtini monastirda o'tkazadi. U yyerda mutafakkir kitoblarni, qadimgi manuskriptlarni (qadimgi yozma manbalar) o'qiydi va o'ziga "indamas" degan taxallusni orttirib oladi. Ikki yil davomida Kamapanella juda ko'p kitoblarni o'qib chiqadi, ilohiyotga bag'ishlangan bahs-munozaralarda qatnashadi. Bu bilan Muqaddas Domenik Ordeni obro'sini yuksaklarga oshiradi, u bilan fahrlanadilar. Tomazzo minglab savollarga javob axtaradi, lekin "mog'or" bosib ketgan sxolastlar ta'limotiga duch keladi. Kunlardan bir kun uning qo'lga Bernardino Telezioning "O'z nomlariga monand bo'lgan narsalar tabiati haqida" nomli kitobi tushib qoladi. Yosh rohib hayratga tushadi. To'g'ri javob topganligiga to'liq ishonadi. Lekin hamma yovuzlik mansabparastlikdan, manfaatparastlikdan kelib chiqadi, uni yo'qotish zarur. Odamlar ahmoq, ularni aqlli qilish darkor. Xususiy mulkni yo'qotish kerak. Agar xususiy mulk bo'lmasa, qashshoqlik ham, Italiyaning sharmisorligi ham bo'lmaydi. Yangi Stilo shahridagi Jovanni Dominik ham boylar o'qiydigan maktab dyerazasi tagida turib, dars tinglamaydi.

Kamapanella monastirdan qochib ketadi. Yangi o'qituvchisi Telezioni izlab topishga harakat qiladi. Lekin buyuk faylasuf Telezio vafot etadi. Qochoq rohib esa uni faqat tobutda ko'radi. Telezioning vafotidan so'ng tez orada hiyonotkor, manfaatparast Jakopo Antonio Martaning "Bernardino Telezioning tamoyillariga qarshi Arastu qal'asi" nomli kitobi nashr qilinadi. Kamapanella ustozini himoya qilishga kirishadi. 1591 -yilda Neapolda uning birinchi asari "Hissiyotga asoslangan falsafa" nomli kitobi nashr qilinadi.

Martaning zaif qochirmalari butunlay yanchib tashlanadi. Kampanella o'zining birinchi ulkan g'alabasiga yerishadi. Lekin u bir narsani butunlay unutadi. Uning hayoti hali ordenga tegishli edi. Uni cherkov tribunaliga chaqiradilar. Undan tavba-tazarrug'ni kutadilar. Lekin o'spirin qat'iy ravishda gapiradi: "Men o'z qisqa

hayotimda shuncha ko‘p shamchiroqni yoqib tugatdimki, siz hali shuncha sharob ichmagansiz!” [1, 201].

Tomazzoni qamoqqa tiqadilar. U yyerda 1 yil o‘tiradi. So‘ng cherkov xodimlarining ta‘qiqlariga qaramasdan Florensiyaga yo‘l oladi. Medichi kutubxonasida bo‘ladi. Dominikanchi-qochoq shu tobda nimani istaydi? Juda kam narsani, ya‘ni erkin-ozod fikrlashni. Lekin bunga yo‘l qo‘ymaydilar. Kamapanellaning ketidan kuzata boshlaydilar, qo‘lyozmalarini o‘g‘irlyadilar. Maqsad uni inkvizitsiya qo‘liga topshirmoqchi bo‘ladilar.

1593 yil Kampanella Paduyaga keladi. U yyerda professor Galileo Galiley va olim Paolo Sarpi bilan tanishadi. Shu davr ichida Kampanella to‘xtovsiz o‘qiydi, o‘ylaydi va yozadi. Tez orada “Italyan hukmdoriga nutqlar” nomli asarini tugatadi. Bu kitobda Kampanella knyazlarni, gyersoglarni ispan-bosqinchilari hokimiyatidan ozod qilishga chaqiradi va Papa boshchiligidagi yagona Italiyaga birlashishga chaqiradi, urushlarsiz, qashshoqliksiz, xususiy mulksiz davlat qurishga da‘vat etadi. Yosh faylasufning asari kimlarnidir kulgisini keltiradi. Inkvizitsiyada esa kulishga vaqt yo‘q, uni so‘zsiz dahriylikda ayblashadi, uni o‘rni gulhanda yoki qasr-qamoqdagi tosh qopda, deydilar.

Kampanella qamoqqa tushadi. U yyerda ikki yil umrini o‘tkazadi. Turmaning azoblaridan so‘ng yana ikki yilni Rim monastrida yotadi. Shundan so‘ng Kampanellani “qat‘iy ravishda dahriylikda ayblanuvchi shaxs”, deb e‘lon qiladilar. So‘ng uni o‘z vataniga qaytarib, Kalabri monastriga yuboradilar. Kampanella hursand bo‘ladi, chunki aynan shu davrlarda, ya‘ni 1600 -yilda Rimning San-Andjelo qasrida buyuk faylasuf Jordano Bruno ham yotgan edi. 1600 yili Bruno bu qasrdan chiqib to‘g‘ri gulhanda yondiriladi.

Kampanella uyiga qaytadi. Nima bilan mashg‘ul bo‘ladi? Kalabriya ispan bosqinchiliklari va hukmdorlarning boshboshdoqligi tufayli ayanchli ahvolga tushib qolgan edi. Vitse-qirol qonunlarini duolar bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Kampanella davlat to‘ntarishiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Butun Italiyaning Janubi bo‘ylab uning shogirdlari tarqaladi, junbushkor nutqlar so‘zlaydilar, yashirin fitna tuziladi, ularning boshida stilolik oddiy kambag‘alning o‘g‘li

Tomazzo Kamapanella turadi. Kampanella Yangi turdagi jamiyatni tuzishni o'ylaydi. Inqilobning g'alabasidan so'ng fuqarolik respublika e'lon qilinishi darkor. Ular jamoa bo'lib yashaydi. Bunday Yangi jamiyatda adolatsizlik va ezilish bo'lmaydi. Bu yerdagi g'alabadan so'ng, Kalabriyadan butun dunyoga Yangi qonun targ'ibotchilari tarqaladilar. Ular yer yuzidagi odamlarni ijtimoiy o'zgarishlarni, Yangi hayotni zaruriy ekanligiga ishontiradilar. Shunda insoniyatning oltin asri boshlanadi. Kampanella hammasini uyushtiradi, hammasini inobatga oladi, lekin hiyonatni ko'ra bilmaydi.

Fitnachilarning barchasi qo'lga olinadi. Charchoq bilmas Tomazzo hibsga tushgan fitnachilarni qamoqxona xodimlari oldida sukut saqlashlariga da'vat etadi. Lekin shu yerdagi xato qiladi. Uning eski, qadrdon bo'lgan tanishi Rinaldo hammasini tyergovchilarga ochiqdan-ochiq aytib beradi. Qamoqqa olinganlarning soni ortadi. Isyonkor-faylasufni og'ir qiynoqqa soladilar. 40 soat – uxlamaslikka majbur qiladilar. Kampanella sukut saqlaydi. Unga erkinlikni va'da qiladilar, Italiyadan chiqarib yuborishni aytadilar – Kampanella bir og'iz ham so'z aytmaydi. Kampanella hammasiga qahramonona chidaydi. U faqat odamlarga – Quyosh shahri haqida ma'lumotni etkazishni istaydi. Bu juda go'zal, erkin davlat bo'ladi.

Ulkan tog'ni etti qal'a o'rab turadi. Ularni ko'rkam yo'laklar va ko'chalar birlashtiradi. U yerdagi ajoyib uylar va ustaxonalar ko'p. Bu yerdagi Yangi turdagi, zamonaviy ijtimoiy jamoa mavjud. Quyosh shahrida – hamma birdek mehnat qiladi, yerkaklar ham, ayollar ham. Yeraklar bilan ayollar bir qatorda falsafa, sport va ilmlar, turli hunarlar bilan shug'ullanadilar. Hamma bolalar maktabda o'qiydi. Ko'cha – bu sinfdir, u kichkina o'yingohlardan iborat. Bu yerdagi o'ynaydilar, o'qituvchilarni tinglaydilar, sport va hunarlar bilan shug'ullanadilar. Quyosh shahri fuqarolari – hammasi oddiy ishchilardir. Shahar qal'alari iste'dodli rassomlar, musavvirlar tomonidan yaratilgan rasmlar, polotnolar bilan bezatilgan.

Kampanellaning hech qachon o'zining oilasi bo'lmagan. Oilasiz ham o'zini juda yaxshi his qiladi. Boshqalar ham xuddi shunday, nikohli oilasiz yashashi mumkin. Kampanella yozadi: “Solyariyada xotinlar umumiy. Nasl qoldirish, ishlab chiqarish davlat manfaatiga xizmat qilishi zarur. Yakka odamlarning manfaati esa

yagona davlatning zaruriy qismini tashkil qiladi”. Ideal davlat yaratildi, Kampanella dam olsa ham bo‘ladi, kitobning so‘nggi nuqtalari ham qo‘yildi.

Lekin Kampanellaning monastrlar va qamoqlarga olinishi davom etdi. U Janubiy Italiyada ashaddiy isyonkor sifatida nom taratdi. Ispan hukmdori undan haligacha g‘azablanadilar. Shunga qaramay, Kampanellaning xayrixohlari orasida jamiyatda ma’lum mavqega yerishganlar ham yo‘q emas edi. Ular Kampanellaning ishini qayta ko‘rib chiqishlarini iltimos qiladilar. 1626 yil 23 mayda qamoqdan chiqadi va monastr qamog‘iga tushadi. Lekin bu safar etikdo‘z o‘g‘liga omad kulib boqadi. Unga rim papasi Urban VIII ning mehri tushadi. U buyuk isyonkor va dahriydan munajjimlar aytib bergan papaning o‘limiga oid ma’lumotni orqaga surib berishni xohlaydi. Munajjimlarning aytgani bo‘lmaydi. O‘lim sodir bo‘lmaydi. Urban o‘z asirining qobiliyatidan hayratga tushadi. Kampanella kitoblarini nashr qilishga va inkvizitsiyadan qo‘lyozmalarini qaytarishga yerishadi.

Lekin shu vaqt Kalabrida ispan tojiga qarshi Yangi fitna uyushtiriladi. Uning boshida Kamapanellaning shogirdi – Pinyaletti turadi. Ispaniya yana eski odatini boshlagan qariyani ularning qo‘llariga topshirishni so‘raydi. Kampanellani fransiya diplomati faytuniga (karetaga) o‘tkazib boshqa nom ostida Fransiya chiqarib yuboradilar. Bu yyerda uni kardinal Rischele ochiq ko‘ngillik bilan kutib oladi. Ya’ni Ispaniyaning dushmani – Fransiyaning do‘stidir. Kampanella “Quyosh shahri”ning ikkinchi nashrini tayyorlaydi. Uning Yangi homiylari, ya’ni Fransiya qirollari – Kampanellaning orzularini amalga oshirdi.

Ajoyib shahar, Quyosh nomin oldi,

Butun hayotim senga bahshida,

Shoxlar birlashar, xalqlar birlashar,

Jo‘mard yaratgan – Quyoshli shahar! (tarjima – G.R.)

Kampanella bashoratlarga ishonardi. 21 may 1639 yilda buyuk mutafakkir San-Jak monastrida vafot etadi. 150 -yildan so‘ng ana shu qasr zallarida yakobinchilar siyosiy klubining birinchi yig‘ilishi bo‘ladi. Ular Erkinlik, Tenglik va Birodarlik tamoyillarini ilgari suradilar.

Kampanella xristianlikning chuqur bilimdoni, vatanparvar, yerksevar faylasuf-yozuvchi bo'lgan. U o'zining ijtimoiy qarashlarida ideal jamiyat haqidagi modelini yaratadi. Shu bilan birga faol arbob, qo'rqmas, to'g'ri so'z, o'z zamonasining ilg'or, ibratli kishisidan biri bo'lgan.

Tomazzo Kampanella italiyalik faylasuf va utopik kommunizmning vakillaridan biri. B.Telezining naturfalsafasini yoqlaydi. Kampanella xususiy mulk bo'lmaydigan, yalpi mehnat, mo'l-ko'llikni ta'minlaydigan, ammo turmushning qat'iy nizom-tartibi mavjud bo'lgan ideal jamiyat haqida yozadi. Kampanella o'zining idealini aqlning buyrug'i va tabiat qonunlari bilan asoslaydi. "Quyosh shahri" ilg'or ijtimoiy fikrning rivojida katta rol o'ynadi. Italyan gumanisti Tomazzo Kampanella "Quyosh shahri", "Xristian monarxiyasi haqida", "Cherkov hokimiyati haqida", "Ispan monarxiyasi haqida" asarlarining muallifi. U ko'plab ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligi haqida fikrni bayon qiladi. Zamondoshi Tomas Mordan farqli ravishda, u ana shunday holatda ommaviy qo'zg'olon orqali yerishish mumkinligiga ishonadi. U o'ziga yoqmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tartiblarni ochiq va to'g'ridan-to'g'ri qilmaydi. Unda davlat – Quyosh shahri timsoli birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, tanqidiy fikrlar esa uning ortiga yashiringan.

Kamapanellaning falsafiy dunyoqarashi Yangi davrning uch yo'nalishini o'zida, ajoyib tarzda birlashtiradi. Bular – empirik, ratsional va mistika. Bularning hammasi alohida keyingi zamondoshlari F.Bekon, R.Dekart va Yakob Byome tomonidan rivojlantiriladi. F.Bekon Kamapanelladan avvalroq tug'ilgan, lekin mutafakkirning birinchi falsafiy asarlari 1588 -yilda nashr qilinadi ("*Lectioes physical, logical et animastical*"), Bekonning asarlari 1605 -yilda chop etiladi.

Kampanella "fanlarni qayta tiklashga" harakat qiladi (*instauratio scientiarum, Instauratio magna*), ya'ni o'rta asr kul tepalari ustidan Yangi univyersal bilimni, fanni tiklashga intiladi. Haqiqiy fanni manbasi sifatida - tashqi tajriba, ichki mazmun va vahe xizmat qiladi. Bilimning birinchi qadami hissiyotdan boshlanadi. Ular xotirada saqlanadi va tasavvur orqali amalga oshadi. Hissiyotning miyadagi izlari mulohazaga yo'l ochadi. Aql ularni mantiq qoidalari

orqali tartibga soladi. Maxsus dalillardan induksiya yordamida umumiy xulosaga keladi. Shunday yo‘l bilan tajribaga ega bo‘ladi, dunyoviy bilimni yaratadi.

Hissiyotga asoslangan bilim o‘zicha yetarli bo‘lmaydi. Chunki biz hislar orqali predmetning o‘zini emas, balki bizga ayon bo‘lgan hodisalarinigina bilishimiz mumkin. Ular hislarimizga qanday qilib ta’sir qiladi, buni ham anglaymiz. Shuning uchun hissiy bilim yetarli emas.

Yana bir jihati, hissiyot o‘z-o‘zicha haqiqat mezonini tashkil qilmaydi, u hissiy-xodisaviy voqelikdir. Biz tushda yoki alahsirayotganimizda ham yorqin tasavvurga ega bo‘lamiz. Ularni haqiqiy voqelik deb qabul qilamiz. Keyin esa yolg‘on sifatida inkor qilamiz. Faqat hissiyot bilan yo‘l tutib, biz hech qachon haqiqatga yerisha olmaymiz. O‘ngimizmi yoki tushimizmi aniq bila olmaymiz.

Agar bizning hamma hissiyotimiz va unga asoslangan hissiy tajribamiz ham predmetlarning haqiqiy mavjudligi haqida ishonarli dalil berolmaydi. Ular tush yoki golyusinatsiya (alahsirash) bo‘lishi mumkin. Bu adashuvchining mavjudligidan dalolat beradi. Aldamchi hissiyot va yolg‘on fikrlar bari-bir his qiluvchi va fikrlovchining mavjudligidan xabardor qiladi (Masalan, Dekart *cogito - yergosum*). Shunday qilib, bevosita qalbimizda yoki ichki hissiyotimizda biz haqiqiy voqelik, borliq haqidagi bilimni topamiz. Ularga asoslanib boshqa mavjudotlarni borligi haqida xulosa qilamiz.

Ichki hissiyotimiz, bizni mavjudligimizdan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda bizga har qanday borliqning usulini yoki aniqligini ochadi. Biz o‘zimizni his qilamiz: birinchidan, kuch yoki qudrat sifatida; ikkinchidan, fikr yoki bilim sifatida; uchinchidan, iroda yoki muhabbat sifatida. Ana shu borliqqa berilgan uch xil ijobiy ta’rif turli darajada butun mavjudlikka xos. Bu bilan borliqning butun ichki mazmuni ma’noga to‘ladi. Zyero, bizdagi kabi, tashqi dunyo mavjudotlarida ham borliq noborliq yoki tubanlik bilan qo‘shlib ketgan. Chunki har bir muayyan mavjudot, aynan shu mavjudotdir boshqasi emas, shu yyerda mavjud, boshqa yyerda emas, hozir mavjud, keyin yoki ilgari emas. Ana shu salbiy jihat ichki mazmunga ham, sifatga ham birdek taalluqlidir, har qanday borliqning uch turdagi asosiy shakliga ham tegishlidir. Zotan, biz faqat kuchga emas, kuchsizlikka ham

egamiz, nafaqat bilamiz, bilmaslik, qoqrong‘ulik holatida ham bo‘lamiz, nafaqat sevamiz, balki nafratlanamiz ham. Agar biz tajribada borliqni noborliq bilan aralashib ketganini ko‘rsak, bizning tafakkurimiz bunday aralashib ketishga salbiy munosabatda bo‘ladi. Ijobiy borliq yoki mutlaq mavjudlik g‘oyasini tasdiqlaydi. Kuch – bu cheksiz qudrat, bilim – hammasidan xabardorlik yoki donolikdir, iroda esa mukammal muhabbatdir. Ilohiyot haqidagi bu g‘oyani biz na tashqi va na ichki tajribadan keltirib chiqara olamiz. Bu Ilohiyotning o‘zini vahesi yoki o‘z-o‘zini ishontirishdir.

Kampanella keyinchalik xudo g‘oyasidan falsafaning mazmunini keltirib chiqaradi. Hamma narsalarda ijobiy borliq (yaratuvchilik), ya’ni quvvat, bilim va muhabbat borligi uchun ular Ilohiyotdan kelib chiqadi, ularga uch xil o‘ziga monand ta’rif xos. Borliqning salbiy tomonlari, ya’ni noborliq bilan aralashgan kuchsizlik, bilimsizlik yoki johillik ijobiy jihatlarni yanada yorqinroq namoyon bo‘lishi uchun Ilohiyot tomonidan shart sifatida beriladi. Borliqdagi ko‘plikni xaotik (tartibsiz) munosabatiga nisbatan bu uch sifat dunyo kutuvchi uch ta’sirga ega (*influxus*): birinchisi, mutlaq zarurat sifatida (*necessitas*), unga hamma narsa bo‘ysungan; ikkinchisi, yuqori taqdir yoki qisman (*fatum*) sifatida, bunda hamma narsalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan; uchinchisi, umumdunyoviy uyg‘unlik, bunda hamma narsa o‘zaro kelishadi yoki ichki birdamlikka yerishadi.

Kampanella fikriga ko‘ra, narsalar tashqi hodisalari jihatidan turli-tuman bo‘lsa ham, ichki mohiyatiga yoki metafizikligiga ko‘ra, yagona Ilohiyotga tegishlidir. Ilohiyot orqali ular bir-biri bilan sirli, ajralmas munosabatda bo‘ladi. Ana shu narsalarning “simpatik” bog‘liqligi yoki tabiiy magiya shuni taqozo qiladiki, hamma yaralgan narsaning asosida Yagona dunyoviy jon yotadi. Bu Ilohiyotning dunyoni yaratishdagi va boshqarishdagi univyersal qurolidir.

Dunyoviy jon bilan uning hodisalari o‘rtasidagi bog‘lovchi rolning naturfalsafiy kategoriyalar bo‘lgan – makon, issiqlik, tortilish va itarilish tushunchalari o‘ynaydi. Dunyodagi tabiiy mavjudotlarning Ilohiyot bilan va o‘zaro metafizik muloqoti ongsiz yoki instinktiv tarzda sodir bo‘ladi. Inson dinda ongli va erkin tarzda ilohiyot bilan birlashishga intiladi. Insonning bunday yuksaklikka

intilishi ilohiyotning quyiga intilishi bilan birga kechadi. Donishmandlikning ilohiy timsoli sifatida Isoni olishimiz mumkin. Demak, insoniyatga ijtimoiy yagonalik sifatida diniy-mistik nuqtai nazarni bog'lashi Kampanellani yoshlik chog'idanoq teokratik kommunizmga olib keldi.

Kampanella bilishda tajribani ahamiyati kattaligini va zaruratini ko'rsatadi. Ikki haqiqat masalasini ko'taradi, ya'ni Tabiat va Ilohiy Yozuv. Dunyoni nafaqat mushohada qilish, balki o'zgartirish insonning qo'lidan keladi. Inson erkin va qudratli mavjudotdir. Uning qalbi ilohiyotga monandir. U o'zi yaratilgan tabiatdan ustun bo'la oladi.

Kampanella Galileo Galileyni himoya qiladi. Koinotning cheksizligini qabul qilmaydi. Lekin dunyoning ko'pligini tan oladi. O'zining falsafiy antropologiyasida Kampanella ilk insonparvar-gumanistlarning g'oyalarini davom ettiradi. Bularga Petrarka va Monettini misol qilishimiz mumkin.

Kampanellaning naturfalsafasi Yangi tabiatshunoslikning manbalaridan biri bo'ldi. Shu bilan birga Kampanella qarashlarida fanning katta ahamiyatini va aholining ta'lim darajasini belgilash, urushlarga chek qo'yish zarurati, adolatli va oqilona boshqaruv kabi ilg'or jihatlari ham bor.

Uyg'onish davri falsafasi sxolastik davridan ma'rifat davriga o'tish uchun zarur bo'lgan buyuk xizmatni bajardi. Bu davr uyg'onish deb bekorga nom olmadi, antik yunon va rim falsafiy myerosini tiklashdan tashqari bu davr insoniyatga buyuk daholar, mutafakkir, san'atkor va shoirlarni berdi.

XIV-XVI asr buyuk mutafakkirlari Yangi dunyoqarash va insonni dunyodagi markaziy o'rnini ko'rsatib berishdi. Teotsentrizm nazariyasi o'rniga Renessans (Uyg'onish) falsafasi gumanizm va antropotsentrizm g'oyalarini kiritdi. Sxolastik diniy ta'limotida xudo kosmos va tabiatdan ajralgan holatda mavjud edi. U tabiatni, koinotni yaratgan, lekin o'zi yaratgan olamdan tashqarida edi. Xuddi shunday inson ham xudodan ajratilgan va inson borlig'i xudoning borlig'idan alohida mavjud edi. Insonni sxolastika gunohkor nomukammal banda deb hisoblar edi. Uyg'onish davri falsafasi insonni ulug'ladi va inson borlig'ini butun koinot va xudoning borlig'i bilan birlashtirdi.

Endi olam cheksiz, doimiy harakatda va o'zgarishda, inson esa mikrokosmos deb hisoblana boshladi. Ruhiiy olam va moddiy olam birlashdi. Shuning uchun Renessans davrining naturfalsafasi panteistik xaraktyerga ega bo'ldi.

Yangi dunyoqarash moddiy olamni cheklangan harakatsiz deb hisoblaydigan sxolastikaga qarshi chiqdi. Moddiy olam ham ruhiy olam ham yagona borliqni tashkil etib doimiy harakatda, o'zgarishda va cheksiz bo'ladi. Cheksizlikning o'zi yagona. Olamning xususiylaridan biridir. Bu abadiy doimiy harakatdagi yagona borliq ruhlangan va jonlidir.

Uyg'onish davri falsafasida materiya mavhum tushuncha emas, u barhayot tirik, xilma xil jilolanadigan borliqdir. Bu borliq qotib qolgan o'zgarmaydigan emas. Borliq tirik ruhlangan bo'lganligi uchun doimiy harakatda va o'zgarishda. Renessans naturfalsafasi falsafiy ta'limot bo'lib, XUP-XUSH asrning ilm fan darajasiga ham ko'tarilmagan edi. Yazaki qaraganda bu kamchilik bo'lib ko'rinsa ham, aslida bu uning eng kuchli tomoni edi.

Renessans naturfalsafasi fan darajasiga ko'tarilganligining sababi bu davrning ziddiyatlaridan kelib chiqmasdi. Aksincha, Renessans davri falsafa tarixida o'ziga xos buyuk betakror ahamiyatga ega davr hisoblanadi. XIV-XV asrning naturfalsafasi buyuk geografik kashfiyotlarga asoslangan tarzda sxolastikaning (qotib qolgan) dunyoqarashiga zarba berdi. Bu zarbani u yetuk rivojlangan fan nuqtai nazaridan emas balki, afsonlar ruhiyati va kuzatishlariga asoslangan tarzda berdi. Fandan haqiqat mezoni ishlab chiqilmagan va Renessans davri dunyoqarashi panteistik tusga ega edi.

Renessans faylasuflariga magiya bilan qiziqshiga xos bo'lgan. Masalan: Piko dello Mirandola, Fichino, J.Bruno falsafiy ta'limotlarida magiyaga katta e'tibor berilgan. Bu yyerda nima uchun? degan savol tug'iladi. Buyuk mutafakkirlar bilimni faol kuchga aylanishini benihoyat istashgan. Buning uchun bilim insonning amaliyotiga qo'shib ketishi va undagi ijodkorlik kuchlariga turtki bo'lishi kerak. Bilimni faol kuchga aylantirishda insonga xudo tomonidan berilgan iroda yordam beradi.

XVII asr ma'rifat davri falsafasi Uyg'onish davri falsafasiga xos bo'lgan panteistik va sensualistik qarashlarni inkor etdi va ular o'rniga mexanistik dunyoqarashni yuzaga keltirdi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. J.Bruno kosmologik ta'limotiga ta'rif bering
2. N.Kopernik bilan J.Bruno kosmologiyasi nima bilan farq qilgan?
3. Galileo Galiley falsafasining mazmuni qanday?
4. Yakob Beme mistikasining mazmuni nimadan iborat?
5. Leonardo da Vinchining ehtimollarga qarshi tajribasining mazmuni nimada?

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Ғарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011.
3. Қобулниёзова Г. Уйғониш ва Янги давр Ғарб фалсафаси анъаналари. Ўқув қўлланма. Қўлёзма ҳуқуқида. –Тошкент, 2013.
4. Фалсафа. Қомусий луғат /Қ.Назаров таҳрири остида. –Тошкент: ЎФМЖ, 2005.